

International House bitiruvchisi Toronto Universiteti talabasi bo'ldi

Toshkent Irrigatsiya va qishloq xo'jaligini mexanizatsiyalash muhandislari instituti International House Tashkent Akademik Litseyi bitiruvchisi Sarvinoz Artaman Toronto Universitetiga o'qishga kirdi. Toronto Universiteti, QS World University Rankings ma'lumotiga ko'ra dunyo Universitetlari reytingida 25 o'rinni egallaydi. Albatta, bu nafaqat litsey uchun balki TIQXMMIning ham katta yutug'i hisoblanadi. Litseyda Sarvinoz Artaman kabi o'quvchilar yildan yilga ko'payib bormoqda va bu hozirgi litsey o'quvchilari uchun o'zgacha motivatsiya.



Toronto Universitetining yuqori darajada rivojlanganligidan quyidagi faktlar guvohlik beradi: Toronto Universiteti Kanada universitetlari reytingida 1-o'rinni egallagan va Times Higher Education ma'lumotlariga ko'ra dunyoning eng yaxshi o'ttizta universiteti qatoriga kiritilgan.

- Toronto Universiteti byudjeti 1 milliard AQSh dollaridan oshadi. Toronto Universitetida 6800 dan ortiq talaba tahsil oladi.
- Toronto Universitetining taniqli bitiruvchilari orasida astronomlar Julia Payet va Roberta Bondar, prodyuser Artur Xillier, yozuvchi Stefan Likok, Kanadaning general-gubernatorlari Vensan Massi va Adrien Klarkson, Latviya Prezidenti Vayra Vike-Frayberg, bir nechta bosh vazirlar, 14 ta sudya bor. Mamlakat Oliy sudi va 6 nafar Nobel mukofoti sovrindori mavjud.



Kanadadagi ushbu universitetda amalga oshirilgan eng muhim ixtirolar va kashfiyotlar: insulin yaratish, ildiz hujayrasini kashf etish, elektron mikroskop ixtirosi.

TIQXMMI matbuot xizmati